<i>Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ijodkorligini rivojlantirishda klaster integratsiyasi va refleksiv yondashuvning o'rni	576
<i>Shabbazova Nodira Xamzayevna</i>	
Umumta'lim maktablarida immersiv texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish	579
<i>Axmedova Dilnoza Baxtiyor qizi</i>	
Tasviriy san'at ta'limida kompozitsiya o'qitishning takomillashtirilgan metodik tizimi.....	581
<i>Karshiboyeva Dilafuz Boxodirovna</i>	
Bo'lajak ona tili o'qituvchilarining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda refleksiv topshiriqlarning o'rni .	584
<i>Altibayeva Malika Kuvandikovna</i>	
STEAM yondashuvi asosida rivojlantiruvchi markazlarning samaradorligini oshirish yo'nalishlari.....	587
<i>O'rinova Feruza O'ljayevna, To'xtaboyeva Maftunaxon G'aniyevna</i>	
Aholi o'rtasida ommaviy sportni rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari	591
<i>Davulov Ozodbek Qalandarovich</i>	
Tasavvufda ma'naviy tarbiya tushunchasi va uning nazariy-metodologik asoslari.....	595
<i>Satimova Sevinch Sardorbekovna</i>	
Teaching Literary and Non-Literary Forms of Speech to Young Learners.....	600
<i>Nargiza Tulyaganova</i>	
Pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlashni boshqarish tizimini takomillashtirishning metod va mexanizmlari	604
<i>Aziboyev Shuhrat Olimovich</i>	
Cerebral falajli bolalarda sensor, diqqat va motor funksiyalar integratsiyasining faktorli tahlili	608
<i>Karimberdiyev Azamat Axmadjon o'g'li</i>	
O'smirlik davrida emotsional intellektni namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari	614
<i>Djumabaeva Manzura Bagibekovna, Zoirova Laylo Alisher qizi, Umirboyeva Zaxro Dilmurod qizi</i>	
Zamonaviy ta'lim modellari mohiyati va ularning pedagogik tizimdagi o'rni (4K, 5E, 5I modellari misolida).....	617
<i>Raxmatov Uchkun Ergashevich, Qodirova Marjona Azamat qizi</i>	
Ayollarni iqtisodiy faollikka tayyorlashda o'quv dasturlarini loyihalash tamoyillari	624
<i>Diyarova Shaxloxon Rovshan qizi</i>	



Interfaol ta'lim metodlari asosida o'qituvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi: tajriba-sinov natijalari tahlili	628
Abdiyeva Shodiyona Yodgor qizi	
Raqamli muhitda maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining qo'shimcha ta'limini tashkil etish: tadqiqotlar sharhi	633
Amanova Dilorom Faxritdin qizi	
Kognitiv tilshunoslikda skript atamasi va uning voqelanish mexanizmlari	637
Fayzullayev Shohrux	
The Concept of Blended Learning and its Role in the Modern Educational Paradigm	641
Fozilova Maxina Adashevna	
Finlyandiya boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematika fanini o'qitish metodikasi	645
G'aybulloyeva Yulduz Mexriddinovna	
Xalq hunarmandchiligi bo'yicha o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish	651
Isoqov Shohruh Turabek o'g'li	
Communicative-Pragmatic Analysis of Binary-Based Paremiias in English, Uzbek, and Russian Languages	654
Jumanova Sabrina Vaydullo kizi	
Internet-risk profilaktikasining bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashdagi o'rni	659
Mamatxanova Nargiza Toxirovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni samarali tashkil etishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari	663
N. Sh. Abdullayeva, F. R. Valiyeva, S. S. Raximova	
Musiqiy-ritmik harakatlarning asosiy komponentlari va ularni rivojlantirishda SI imkoniyatlari	667
O. A. Shodiyeva	
Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimi asosida ta'limni tashkil etishning pedagogik xususiyatlari ..	672
Y. R. Azzamov	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integratsion yondashuv asosida bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslari	676
Yakubova Zilola Zikirovna	
Aksiologik yondashuv asosida talabalarda mas'uliyatni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	679
Teshayeva Dilnoza Chori qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tasviriy faoliyat turlari asosida estetik tarbiyalash masalalari.	684
Yuldasheva Dilshoda To'liqinovna	
Профессиональная рефлексия как фактор развития научного интеллекта будущего педагога в системе педагогического образования	688
Анварова Хуснора, Исохонова Азиза	
Толерантность в мультикультурном обществе	692
Бекбосынова З. К.	
Методика работы над ошибками как средство повышения грамотности	696
Исмаилова Мадинабону	
Методы и подходы к развитию профессиональной лексической компетенции студентов военных направлений	701
Хамидова Нигора Тулкуновна	

PEDAGOG KADRLARNI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASHNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING METOD VA MEXANIZMLARI

Aziboyev Shuhrat Olimovich

Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi direktori

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlashni boshqarish tizimini takomillash-tirish muammosi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etiladi. Innovatsion boshqaruv tizimini shakllantirishda zamonaviy pedagogika, psixologiya va menejment nazariyalarining uyg'unligi, shuningdek rahbariyat va pedagoglar o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati alohida yoritiladi. Pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga jalb etishning rag'batlantirish mexa-nizmlari, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish usullari hamda muassasalarning ichki boshqaruv madaniyatini yuksaltirish yo'llari tizimli ravishda asoslab berilgan. Tadqiqot doirasida O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasidagi islohotlarning metodologik asoslari hamda xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari qiyosiy tahlil qilinib, pedagog kadrlar boshqaruvini modernizatsiya qilishning ilmiy asoslangan modeli taklif etiladi.

Kalit so'zlar: innovatsion boshqaruv, pedagog kadrlar, kasbiy kompetentlik, rag'batlantirish mexanizmlari, ta'lim islohot-lari, boshqaruv madaniyati, innovatsion muhit, professional rivojlanish, metodlar, mexanizmlar.

Abstract: The article provides a scientific-theoretical and practical analysis of improving the management system for preparing teaching staff for innovative activities. Particular attention is given to the integration of modern pedagogical, psychological, and management theories in shaping an innovative management system, as well as to the importance of collaboration between administrators and teachers. The study systematically examines incentive mechanisms for engaging teaching staff in innovative activities, methods for developing professional competence, and approaches to enhancing the internal management culture of educational institutions. A comparative analysis of the methodological foundations of educational reforms in the Republic of Uzbekistan and advanced international practices is conducted, resulting in a scientifically grounded model for modernizing the management of teaching staff.

Key words: innovative management, teaching staff, professional competence, incentive mechanisms, educational reforms, management culture, innovative environment, professional development, methods, mechanisms.

Аннотация: В статье проводится научно-теоретический и практический анализ проблемы совершенствования системы управления подготовкой педагогических кадров к инновационной деятельности. Особое внимание уде-ляется интеграции современных педагогических, психологических и управленческих теорий в формировании инновационной системы управления, а также значению сотрудничества между руководством и педагогами. Системно раскрываются механизмы стимулирования педагогических кадров к инновационной деятельности, методы развития профессиональной компетентности и пути совершенствования внутренней управленческой культуры образовательных учреждений. В рамках исследования осуществлён сравнительный анализ методоло-гических основ реформ в сфере образования Республики Узбекистан и передового зарубежного опыта, на основе которого предложена научно обоснованная модель модернизации управления педагогическими кадрами.

Ключевые слова: инновационное управление, педагогические кадры, профессиональная компетентность, механизмы стимулирования, образовательные реформы, управленческая культура, инновационная среда, про-фессиональное развитие, методы, механизмы.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimining dinamik rivojlanishi sharoitida pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyor-lashni boshqarish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son¹ Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-5085999>



yil 21-iyundagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-231-son² qarorlari ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni tizimli boshqarishning yangi talablarini belgilab berdi. Ushbu hujjatlar pedagog kadrlar kompetentligini yuksaltirish, ularning innovatsion salohiyatini ro'yobga chiqarish va boshqaruv mexanizmlarini zamonaviy talablar asosida qayta ko'rib chiqish zarurligini asoslab beradi.

Shunday bo'lsa-da, ta'lim amaliyotida pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlashni boshqarish tizimi hali yetarli darajada shakllanmagan bo'lib, ko'pchilik ta'lim muassasalarida bu jarayon spontan va tizimli rejalashtiruvdan mahrum holda amalga oshirilmoqda. Boshqaruvning an'anaviy usullari ko'pincha pedagoglarning ijodiy tashabbusini cheklaydi, ularni yangilikka ochiq va moslashuvchan bo'lishga yo'naltira olmaydi. Bu esa pirovardida ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va zamonaviy jamiyatning pedagoglarga bo'lgan talablariga javob bera olmaslikka sabab bo'ladi. Ushbu maqolaning maqsadi pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlashni boshqarish tizimini takomillashtirishda qo'llaniladigan metod va mexanizmlarni ilmiy-nazariy jihatdan asoslash, shuningdek, O'zbekiston ta'lim muassasalari uchun samarali boshqaruv modeli elementlarini ishlab chiqishdan iborat. Maqola pedagogika, psixologiya va menejment fanlarining kesishmasida joylashgan ko'pqirrali muammoga bag'ishlangan bo'lib, uning ilmiy va amaliy ahamiyati yuqori hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlashni boshqarish tizimini ilmiy o'rganish uchun avvalo "innovatsion boshqaruv" tushunchasining mazmunini aniqlashtirish zarur.

I.A. Zimnyaya innovatsion boshqaruvni ta'lim muassasasida barqaror o'zgarishlarni ta'minlashga yo'naltirilgan maqsadli, tizimli va natijaga asoslangan faoliyat sifatida ta'riflaydi. Bu ta'rifdan kelib chiqib aytish mumkinki, innovatsion boshqaruv o'ziga xos strategik yo'nalish, samarali resurs taqsimoti va doimiy monitoring kabi elementlarni o'z ichiga oladi.

V.I. Slobodchikov va Ye.I. Isaev esa ta'lim muassasasidagi boshqaruvni subyektivlik nuqtai nazaridan ko'rib, pedagogning faoliyat subyekti sifatida shakllanishini tizimli boshqaruvning markaziy vazifasi deb belgilaydi. Bu yondashuv pedagog kadrlarga nisbatan obyekt sifatida emas, balki innovatsion jarayonning faol ishtirokchisi sifatida munosabatda bo'lishni taqozo etadi.

O'zbek pedagog olimlaridan T. Yo'ldoshev ta'lim muassasalarini boshqarishda innovatsion yondashuvni qo'llashning milliy modeli ustida izlanishlar olib borgan va o'zbek ta'lim tizimiga xos bo'lgan madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni e'tiborga olgan holda boshqaruv strategiyalarini belgilashni tavsiya etgan. Ushbu ilmiy manbalar maqolaning metodologik zaminini tashkil etadi. Nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, innovatsion boshqaruv tizimi uchta asosiy tamoyilga tayanadi:

- birinchisi – demokratiklashtirish, ya'ni boshqaruv qarorlarini qabul qilishda pedagoglarning faol ishtirokini ta'minlash;
- ikkinchisi – motivatsiya, ya'ni kadrlarning ichki va tashqi rag'batlantirilishini muvozanatli amalga oshirish;
- uchinchisi esa – refleksivlik, ya'ni boshqaruv subyektlari o'z faoliyatini doimiy tahlil qilib, takomillashtira borishlari.

Bu tamoyillar birgalikda innovatsion boshqaruv tizimining poydevori vazifasini o'taydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ma'lumotlar yig'ishning bir necha usullaridan foydalanildi, jumladan, ilmiy-nazariy manbalarni tahlil qilish, normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish, ta'lim muassasalari faoliyatini kuzatish hamda pedagog kadrlar bilan suhbat va so'rovnoma o'tkazish. Xorijiy va mahalliy tajribalarni aniqlash maqsadida qiyosiy tahlil usuli qo'llanildi. Olingan ma'lumotlar tizimlashtirilib, ularning mazmuni kontent-tahlil asosida o'rganildi hamda umumlashtirish va taqqoslash metodlari yordamida qayta ishlanib, asosiy tendensiyalar va muammolar aniqlashtirildi. Shuningdek, statistik tahlil elementlari orqali natijalarning ishonchligi tekshirildi va ularning amaliy ahamiyati baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlashni jalb etishda qo'llaniladigan metod va mexanizmlar ikki katta guruhga bo'linadi: motivatsion-stimullovchi va tashkiliy-strukturaviy mexanizmlar. Birinchi guruhga moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, muvaffaqiyatga erishishga yo'naltiruvchi ijodiy muhitni yaratish, kasbiy

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-231-son qaror: <https://lex.uz/uz/docs/-6981085>



o'sish uchun imkoniyatlar berish kabi usullar kiradi. Ikkinchi guruhga esa boshqaruv tuzilmalarini takomillashtirish, innovatsion loyihalarni birgalikda rejalashtirish va amalga oshirish hamda professional tarmoqlar barpo etish kabi mexanizmlar kiradi. D. Polyanining tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlashni rag'batlantirishda moddiy imtiyozlardan ko'ra kasbiy tan olinish va o'z-o'zini namoyon etish imkoniyatlari ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Shu bois rahbar innovatsion tashabbuslarni ochiqchasiga qo'llab-quvvatlashi, pedagog uchun xavfsiz ijodiy makon yaratishi lozim.

Tashkiliy mexanizmlar orasida alohida e'tiborga loyiq jihat – bu “coaching” va mentoring texnologiyalaridir. Mentoring tizimida tajribali pedagoglar yangi kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlashni yo'naltiradi va ular bilan o'z bilimlarini ulashadi. Kouching esa pedagogning o'z salohiyatini mustaqil kashf etishiga ko'maklashadi. A.G. Asmolov ushbu yondashuvni “sub'ektiv faollik” tamoyili asosida asoslab, ta'lim tizimidagi boshqaruvning humanistik mohiyatini ta'kidlaydi.

O'zbekiston ta'lim muassasalari uchun muhim mexanizmlardan biri – bu “ilmiy-metodik boshqaruv” tizimidir. Bu tizim doirasida rahbar nafaqat ma'muriy vazifani, balki metodist va ilmiy maslahatchi vazifasini ham bajaradi. Muayyan ta'lim muassasasining metodik kengashi innovatsion faoliyatni boshqarishning kollegial organi sifatida faoliyat yuritadi va pedagoglar o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. B.S. Gershunsky ta'lim menejmenti sohasida “intelektual boshqaruv” tushunchasini kiritib, boshqaruvchi va boshqariluvchi o'rtasidagi muloqot sifatini belgilash asosiy mezon ekanligini ta'kidlaydi.

Jahon ta'lim amaliyotida pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlashni boshqarishning bir qator samarali modellari shakllangan. Finlyandiya “distributed leadership” (taqsimlangan rahbarlik) modeli keng qo'llaniladi. Bu modelda boshqaruv vakolatlari birgina rahbar zimmasida emas, balki kichik ijodiy guruhlar va metodik jamoalar o'rtasida taqsimlanadi. Natijada har bir pedagog ma'lum darajada boshqaruv subyektiga aylanadi va bu uning innovatsion faolligini sezilarli darajada oshiradi. P. Sahlberg Finlyandiya ta'lim modelini tahlil qilib, bu mamlakatning muvaffaqiyati ko'p jihatdan pedagoglarga ishonch va mustaqillik berish siyosatiga asoslanganligini isbotlaydi.

Germaniyada esa “Lehrerbildung” – pedagog tayyorlash tizimi doirasida innovatsion boshqaruv “uzluksiz rivojlanish” prinsipi asosida yo'lga qo'yilgan. Har bir ta'lim muassasasida “innovatsion komanda” tuziladi va ushbu komanda pedagoglarga yangi metod va texnologiyalarni sinab ko'rish uchun zarur shart-sharoit hamda moliyaviy qo'llab-quvvatlash bilan ta'minlanadi. Ushbu tajriba shuni ko'rsatadiki, innovatsion faoliyat faqat alohida iqtidorli pedagoglar faoliyati emas, balki tizimli, maqsadli boshqaruv mahsuli bo'lishi mumkin.

Singapurda “Teaching as leadership” dasturi pedagoglarni boshqaruv kompetensiyalari bilan qurollantiradi va ularni o'z hamkasblari faoliyatini takomillashtirishga yo'naltiradi. Bu dastur natijasida pedagoglar didaktik lider sifatida shakllanadi va ta'lim muassasasida gorizontal innovatsion aloqalar vujudga keladi. S. Darling-Hammond pedagog liderligini ta'limning uzluksiz sifati kafolati sifatida ko'rib, uning rivojlanishiga investitsiya kiritishni mamlakat taraqqiyoti bilan bevosita bog'laydi.

Ushbu xorijiy tajribalarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirishda bir qator omillarni hisobga olish zarur: milliy ta'lim mentaliteti, mavjud boshqaruv tuzilmalari, moliyaviy resurslar va pedagoglarning tayyorgarlik darajasi. Shu sababli taklif etilayotgan mexanizmlar asl nusxaning ko'chirmasiga emas, balki milliy sharoitga moslashtirilgan kreativ sintezga asoslanishi lozim.

Pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlashni boshqarish tizimini amalda takomillashtirish uchun, birinchi navbatda, ta'lim muassasasidagi boshqaruv madaniyatini yangilash talab etiladi. Boshqaruv madaniyati – bu muassasa ichidagi qadriyatlar, e'tiqodlar, normalar va o'zaro munosabatlar to'plami bo'lib, u innovatsion muhitning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Agar muassasa madaniyati nazorat va jazolashga emas, balki ishonch va hamkorlikka asoslangan bo'lsa, pedagoglar yangi g'oyalarni bema'lol taklif etadi va sinab ko'rishga tayyor bo'ladi.

Ikkinchi muhim yo'nalish – pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini tizimli rivojlantirishdir. Bu maqsadda yangi formatdagi malaka oshirish dasturlarini joriy etish, muassasa ichida o'zaro ta'lim (peer-learning) amaliyotini yo'lga qo'yish, pedagoglarning professional portfelini yuritish tizimini qo'llab-quvvatlash talab etiladi. S.L. Rubinshteyn faoliyat va shaxs rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, faoliyat subyekti o'z ishiga mas'uliyatini anglab yetishi kasbiy o'sishning asosiy sharti ekanligini ko'rsatadi.

Uchinchi yo'nalish – innovatsion faoliyat monitoringini doimiy va obyektiv tarzda amalga oshirishdir. Monitoring tizimi nafaqat natijalarni baholash, balki jarayon sifatini kuzatish, muammoli nuqtalarni erta aniqlash va moslashuvchan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi. Xususan, ta'lim muassasasida “innovatsion faollik indeksi”ni joriy etish pedagog kadrlarning dinamikasini ko'rsatib, boshqaruv amaliyotini o'z vaqtida moslashtirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Yu.A. Konarjevskiy monitoring tizimini boshqaruvning “ko'zi” deb belgilab, uni menejmentning ajralmas elementi sifatida asoslaydi.

To'rtinchi yo'nalish – innovatsion faoliyatda raqamli texnologiyalardan foydalanishdir. Bugungi kunda elektron ta'lim platformalari, virtual hamkorlik muhitlari va sun'iy intellekt asosidagi analitik vositalar pedagog kadrlarni boshqarishda yangi imkoniyatlar ochib bermoqda. Xususan, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv



(data-driven management) yondashuvi rahbarga obyektiv va tezkor ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasining raqamli ta'lim strategiyasi ham ushbu yo'nalishdagi harakatlarni qo'llab-quvvatlaydi va ta'lim muassasalarini boshqarishni raqamlashtirish dasturlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlashni boshqarish tizimini takomillashtirish – bu bir martalik chora emas, balki uzluksiz, dinamik va ko'p o'lchamli jarayon. Ushbu jarayon muvaffaqiyatli kechishi uchun, avvalo, rahbariyat tomonidan innovatsiyaga nisbatan ochiq va qabul qiluvchi munosabatni shakllantirish zarur. Rahbar o'z pedagoglariga nafaqat administrator, balki lider, murabbiy va hamkor sifatida yondashganda innovatsion faollik tabiiy ravishda rivojlanadi.

Maqolada tahlil qilingan metod va mexanizmlar – motivatsion rag'batlantirish, mentoring, kouching, taqsimlangan rahbarlik, monitoring va raqamli boshqaruv – har biri alohida emas, balki birgalikda va bir-birini to'ldirib qo'llanilganda yuksak samara beradi. Xorijiy tajribadan ko'rinib turibdiki, innovatsion boshqaruv tizimini muvaffaqiyatli joriy etishning asosiy sharti – bu tizimlilik, barqarorlik va milliy ta'lim kontekstini chuqur tushunishdir.

O'zbekiston ta'lim muassasalari uchun amaldagi islohotlar doirasida pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlashni boshqarish tizimini yangilash nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki pedagoglarning shaxsiy-kasbiy yuksalishini ta'minlash, shuningdek, muassasaning raqobatbardoshligini kuchaytirish uchun muhim strategik qadamdir. Kelajakda ushbu tadqiqot yo'nalishini eksperimental tekshirish va keng ko'lamli empirik ma'lumotlar asosida yanada rivojlantirish istiqbolli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yo'ldoshev T. Ta'lim muassasalarini boshqarish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018. – 256 b.
2. Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psixologiya. – Moskva: Logos, 2004. – 384 b.
3. Слободчиков В.И., Исаев Е.И. Основы психологической антропологии. Психология человека. – Москва: Школа-Пресс, 1995. – 384 с.
4. Поляни Д. Личностное знание. – Москва: Прогресс, 1985. – 344 с.
5. Асмолов А.Г. Психология личности. – Москва: Московский государственный университет, 1990. – 367 с.
6. Гершунский Б.С. Философия образования для XXI века. – Москва: Педагогическое общество России, 1998. – 432 б.
7. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – Москва: Педагогика, 1989. – 488 б.
8. Конаржевский Ю.А. Анализ уроков. – Москва: "Педагогический поиск", 2003. – 336 с.
9. Sahlberg P. Finnish Lessons 2.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? – New York: Teachers College Press, 2015. – 228 p.
10. Darling-Hammond L. The Flat World and Education: How America's Commitment to Equity Will Determine Our Future. – New York: Teachers College Press, 2010. – 324 p.
11. Terhart E. Lehrerberuf und Lehrerbildung. Forschungsbefunde, Problemanalysen, Reformkonzepte. – Weinheim und Basel: Beltz Verlag, 2001. – 352 S.
12. Fullan M. Leading in a Culture of Change. – San Francisco: Jossey-Bass, 2001. – 187 p.
13. Hargreaves A., Fullan M. Professional Capital: Transforming Teaching in Every School. – New York: Teachers College Press, 2012. – 240 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.